



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

ADABIY VORISLIK AN'ANALARIDA IJODIY TAJDID (NOVATORLIK) - ADABIY JARAYONNING HARAKATLANTIRUVCHISI (GENERATORI).

Baltayeva Ikbal Tadjibayevna

O'zbekiston davlat

*jismoniy tarbiya va sport universiteti O'zbek va chet
tillari kafedrası professor v.b., filologiya fanlari nomzodi.*

Annotatsiya: *Badiiy adabiyot qanday shaklda bo'lmasin: og'zakimi yoki yozma bo'lishidan qat'i nazar, kishilarning ma'naviy-ruhiy, axloqiy kamolotini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'ladi. Shu sababdan insoniyat badiiy adabiyotni ma'naviy javhar sifatida ajdoddan avlodga o'tkazish zaruriyatini his qilib yashaydi. Ana shu ehtiyoj kuchi adabiyotni asrlar osha barhayot qilib, o'zgaruvchan zamon talab va maqsadlariga mos holda taraqqiy etishini ta'minlab keladi. Darhaqiqat, quyida keltirilayotgan maqolamiz badiiy adabiyotning vorislik an'analari novatorlik adabiy jarayoni haqida.*

Kalit so'zlar: *adabiy vorislik, ijodiy tajdid, adabiyotshunoslikda an'anaviylik, ijodiy novatorlik, nazariy tavsif, adabiy jarayon.*

Milliy istiqlol davri o'zbek adabiyotida mavjud ichki va tashqi adabiy tajriba hamda vorislik an'analari va uslubiy yangilanishlarga qiziqish ortib bormoqda. Milliy istiqlol davri OAVda o'zlikni tanish kuchaygan, badiiy adabiyot esa kitobxonlar ongida o'zlikni anglash jarayonining amalga oshishida eng ta'sirli vositaga aylangan ayni zamonda ijodiy novatorlikni "yangilovchilik" istilohi bilan ham yuritish mumkin, deb hisoblaymiz. Chunki, ikki jildlik "Adabiyot nazariyasi" da ta'riflanishicha, "Novatorlik - (lotincha novator - yangilovchi) - adabiyotning mazmunini ham, shaklini ham yangi badiiy yutuq va kashfiyotlar: yangi qahramonlar, taraqqiyot, g'oyalar, yangi ijodiy usul, yangi badiiy uslub va vositalar bilan boyitish" sanaladi⁴. "Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati" da bu ilmiy tushunchaga quyidagicha nazariy izoh berilgan: "Novatorlik (lot. novator - yangilovchi, yangilanuvchi) - adabiy jarayon bilan bog'liq kategoriya, adabiy jarayonda an'ana bilan har vaqt dialektik aloqada mavjud bo'lgan hodisa, adabiyot taraqqiyotining muhim ichki omili, badiiy tafakkur rivojiga sezilarli ta'sir o'tkazib, keyinchalik an'anaga aylanuvchi muhim badiiy-estetik yangilik"⁵.

⁴ Qarang: Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 2-tom. -T.: Fan, 1979. -B.26.

⁵ Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. -Toshkent: O'qituvchi. 1979.-B.44., Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. -T.:Akademnashr, 2010. -B. 204-205.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

O'z davrining badiiy-estetik ehtiyojlarini teran his etolgan ijodkorgina adabiy an'anaga tanqidiy munosabatda bo'lib, yangilik yaratishga qodir bo'ladi. Misol uchun, Abdulhamid Cho'lpon o'zbek mumtoz adabiyoti an'analari bag'rida etishib, o'z ijodi bilan she'riyatimizga qator yangiliklarni olib kirdi. Xususan, uning badiiy shakl yo'nalishidagi novatorligini: "...she'rlarining ritmik-intonatsion qurilishida barmoq va sarbast imkoniyatlaridan keng foydalanishi, mumtoz she'riyatdagi she'riy shakllarni o'zgartirib qo'llashi, she'riyat tilini jonli so'zlashuv tiliga yaqinlashtirib qo'llashga intilishi, she'riyatimizga ijroviy lirika kabi janr ko'rinishlarini olib kirganida; badiiy mazmun sohasida esa she'riyatga ijtimoiy "men"ni olib kirgani, shaxsiylangan ijtimoiy dardni kuylagani, an'anaviy poetik obrazlar (yor, oshiq, visol va b.q.) ma'nosini o'zgartirgani kabilarda ko'rinadi. Unutmaslik kerakki, davrning badiiy-estetik talab-ehtiyojlarini shu davrda qalam tebratgan ijodkorlarning barchasi his etadi, shu ma'noda, talantli ijodkorlarning hammasida muayyan darajadagi novatorlik mavjud. Ayni chog'da, novatorlik xususiyatlari davrning yirik san'atkorlari ijodida mujassam ifodasini topadi"⁶. Ko'rinyapdiki, yuqoridagi "Adabiyotshunoslik lug'ati" da berilgan izohda yangilovchilikka xos belgilarning hammasi aniq aks etgan desa bo'ladi. Tushunish mumkinki, yangilovchilik bo'sh joyda paydo bo'lmaydi. U takroriylik bag'rida etishadi. Biroq u shunchaki takror emas, qo'ynida originallik, qaytarilmaslik belgilarini tashiydigan takroriylikdir. Ayni vaqtda yangilovchilik yo'qdan paydo bo'lgan majhul hodisa ham emas. Demak, yangilovchilik shunday hodisaki, u keyingi ijodkorlar tomonidan davom ettiriladi, qo'llaniladi, foydalaniladi va keyingi bosqichdagi betakrorliklarga zamin bo'ladi. Nodira Soatova yozadiki: "Adabiyotshunoslikda an'anaviylik va novatorlik o'zaro bog'liq, bir-birini taqozo qiladigan va bir-birini to'ldiradigan adabiy kategoriyalar bo'lib, zamonaviylik bilan chambarchas bog'liqdir. Novatorlik ilg'or adabiy an'analarni inkor etmaydi, balki ularga tayanadi va ulardan ijodiy foydalanadi.

Novatorlik, birinchidan, tarixiy taraqqiyotning yangi ijodiy bosqichi bo'lgan hozirgi davrda ro'y berayotgan voqealarni chuqur tushunish, hayotiy jarayonning eng qaynoq jabhalarini badiiy idrok etish, ikkinchidan, etakchi qahramonlar obrazi orqali tasvir etilayotgan davrni yorqin va haqqoniy aks ettirish, uchinchidan, inson xarakteri va ruhiy dunyosini chuqur ochib berish va, nihoyat, davrning muhim ijtimoiy va ma'naviy muammolarini dadil ko'tarib chiqish yo'li bilan namoyon bo'ladi. Bular, birinchi navbatda, shaklga emas, mazmunga oid masalalardir. Ijtimoiy hayotning jadal sur'atlar bilan olg'a intilishi jarayonida

⁶ Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati.-T.: Akademnashr, 2010. -B. 204-205.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

muttasil ro'yi berayotgan yangi voqea-hodisalarni ilg'ab olish, hali tarix bisotiga o'tmagan, to'la darajada tugallanmagan, ya'ni hamon shakllanish holatida bo'lgan ijtimoiy tamoyillarni belgilash va ularni badiiy aks ettirish jarayonida bu tamoyillarning tarixiy istiqbolini ko'rsatish, yangi tiplarni, yorqin individual xarakterlarni yaratish juda murakkab va, ayni vaqtda, favqulodda muhimdir. Qisqasi, bu masalaning qiyinchiliklari va murakkab-liklari juda ko'p. Novatorlik ana shu murakkab ijodiy jarayonda tarkib topib va namoyon bo'lib boradi. Uning shakllanishi va rivojlanishi esa, birinchi navbatda, yangi voqelik va yangi qahramonlarni, inson xarakterlarini badiiy kashf etish tamoyilining kuchayib borishida, ayni vaqtda, yangi mazmunga muvofiq keladigan yangi badiiy shakllarning vujudga kelishida, ular rang-barangligining oshishida, yangi badiiy vositalarning kashf etib borilishida namoyon bo'ladi"⁷.

Ushbu hajman kattaroq iqtibos mazmuni biz o'rganayotgan adabiy tajdid muammosiga aloqador bo'lgani uchun keltirdik. Ochig'i, N. Soatovning mazkur fikrlari badiiy ijoddagi novatorlikning nazariy tavsifi uchun xizmat qilsa-da, uning ifodasida uslubiy g'alizlik ko'rindi. Misol uchun, parchadagi uchinchi uzun jumlada kelgan "hozirgi davrda ro'yi berayotgan voqealarni chuqur tushunish" gapi bilan "hayotiy jarayonning eng qaynoq jabhalarini badiiy idrok etish" gapi, shuningdek, "davrni yorqin va haqqoniy aks ettirish" gapi va "davrning muhim ijtimoiy va ma'naviy muammolarini dadil ko'tarib chiqish" jumlasini mazmunan bir xil bo'lgani uchun yaxlit ifodalash mumkin edi. Ular aks ettirgan nazariy fikr keyingi jumalarda ham "yangi voqea-hodisalarni ilg'ab olish", "shakllanish holatida bo'lgan ijtimoiy tamoyillarni belgilash" deya takrorlangan. Ushbu parchada "tamoyillarning tarixiy istiqboli" degan g'alati birikma mavjud. Mantiqan tarix o'tmishga, istiqbol kelajakka daxldor bo'lsa, "tarixiy istiqbol" nimani anglatadi, degan savol tug'iladi.

Ijodiy novatorlikni turli davrlarga mansub shoir va adiblarning asarlari misolida ko'rish mumkin. Chunonchi, Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida faqat turkiy she'riyatda mavjud bo'lgan tuyuq janri haqida shunday yozadi "Birisi tuyug' dirkim, ikki baytqa muqarrardur va sa'y qilurlarkim, tajnis aytilg'ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur, mundoqkim:" (tuyug')

Yo rab, ul shahdu shakar yo labdurur?

Yo magar shahdu shakar yo labdurur?

Foilotun foilotun foilon

Jonima payvasta novak otqali

⁷ Soatova N. An'anaviylik va vorisiylik. –T.: Mumtoz so'z, 2019. –B.12.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

G'amza o'qin qoshig'a yolabdurur?

*Foilotun foilotun foilon"*⁸

Navoiydan so'ng necha zamonlar o'tib, Ergash Jumanbulbul o'g'li tomonidan kuylangan "Ravshan" dostonida Hasanxon tilidan o'zga mazmunda aytilgan bir she'r ham tuyuq janriga mansub. U Navoiy ta'riflagan tuyuq janri talablariga mos keladi. To'g'ri, dostonidagi tuyuq aruz vaznida emas, ya'ni ramali musaddasi maqsur vazniga tushmaydi. Dostonidagi she'riy parcha o'zbek xalq og'zaki ijodi uchun an'anaviy bo'lgan barmoq tizimiga mansub. Lekin xalq eposida kelgan tuyuq xuddi Navoiy tuyuqlari singari o'n bir bo'g'inlidir. Ergash Jumanbulbul o'g'li ijodida ham turli ma'noni anglatadigan shakldosh (tajnis) so'z qofiyasi qo'llanilgan:

Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,
YAxshilik qil, bolam, yomonlikni ot!
Nasihatim yod qilib ol, yolg'izim,
Yolg'iz yursa, chang chiqarmas, yaxshi ot⁹.

Anglashiladiki, zamon va makonlararo masofa adabiy janr tabiatini belgilaydigan asosiy talablarning bajarilishi uchun to'siq bo'lolmas ekan. E'tibor bersangiz, Navoiy va Ergash Jumanbulbul o'g'lining yuqoridagi tuyuqlarida shakliy qoliplardagi o'xshashlikdan o'zga hech qanday yaqinlik yo'q. Demak, badiiy ijodda san'atkorning qaytarilmas badiiy mahorati, o'ziga xos iste'dodi, dunyoqarashidagi individuallik hamda tasvir etilayotgan hayotiy va ruhiy holat tufayli vujudga keladigan badiiy betakrorlik ustuvor ahamiyat kasb etar ekan. Betakrorlik to'g'risidagi bu fikrlar takroriylikning badiiy ijodidagi ulkan ahamiyatini, hal qiluvchi o'rnini aslo inkor etmaydi. Ijod jarayonidagi ko'pgina holatlar, ayniqsa, adabiy turlar va ularga mansub janrlarga qo'yiladigan xos talablar, uzoq zamonlar mobaynida shakllangan poetik kanonlarga amal qilish takroriylik hodisasini tashkil etadiki, bu holatni hisobga olmaslik badiiy ijodning mohiyatini to'g'ri anglamaslikka olib keladi.

Haqiqiy ijodkorlar, istisnosiz tarzda, aksariyat hollarda betakror individuallikka takroriylik orqali erishadilar. Tabiiyki, ijodkor yangidan paydo bo'lgan o'y-xayollari, tuyg'u va kechinmalarini eskidan mavjud bo'lgan qolipga solgan holda moddiylashtirishga ehtiyoj sezadi. Badiiy ijodning shu bosqichida takroriylikka zaruriyat paydo bo'ladi. Ya'ni chinakam iste'dodning qudrati ayni shu o'rinda namoyon bo'ladi. Zotan, iste'dodli ijodkor o'z poetik mahsulini mavjud qoliplarga shunchaki solib qo'ya qolmay, mavjud qolip ichida islohot qilishga,

⁸ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. 16-tom.—T.: Fan, 2000.—B.71-72.

⁹ Ergash Jumanbulbul o'g'li. "Ravshan". Doston. —T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.—B.57.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

o'zgarish yasashga, o'zidan oldingilarga o'xshab qolmaydigan yangilik yaratishga intiladi. Muayyan asarda takroriylik qancha kuchli namoyon bo'lsa, betakrorlik shu darajada o'zini namoyish etishga o'z bo'ladi. Ulkan talant egalari takroriylik bag'rida kutilmagan betakrorlik yarata oladilarki, badiiy asarning qimmatini ana shu qaytarilmaslikda yuksak bahosini topadi. Ko'rinadiki, so'z san'atining yashovchanligi vorisiylikning shu xildagi murakkab va chigal o'zaro munosabatlari orqali davom etadi. Bizga ma'lum bo'lyapdiki, adabiyotning rivojlanishi, taraqqiy etishi faqat takroriylikda betakrorlik tarzida namoyon bo'ladigan vorisiylik qonuniyatining amal qilishi tufayli yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. -T.: Akademiya, 2010. -B. 204-205.
2. Soatova N. An'anaviylik va vorisiylik. -T.: Mumtoz so'z, 2019. -B.12.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. 16-tom. -T.: Fan, 2000. -B.71-72.
4. Ergash Jumanbulbul o'g'li. "Ravshan" . Doston. -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. -B.57.